

Ruxsora G'ULOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: ezozasavkatova@gmail.com

F.f.d (DSc) O'.Tilovov taqrizi asosida

DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING IJTIMOY MOHIYATI

Аннотация

Maqolada davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari, ekologik siyosatning ijtimoiy mohiyati, ko'rinishlari, sohalararo turlari, jamiyat miqyosida muayyan ekologik siyosatni yo'lga qo'yish zaruriyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, ekologik siyosat, tabiiy ofat, ekologik vaziyat, ekologik munosabat, ekologik muammolar, ekologik madaniyat, ekologik subyektlar.

СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В статье рассматриваются основные направления государственной экологической политики, социальная природа экологической политики, ее формы, междисциплинарные виды, а также необходимость формирования конкретной экологической политики на уровне общества.

Ключевые слова: экологическая безопасность, экологическая политика, стихийное бедствие, экологическая ситуация, экологическое отношение, экологические проблемы, экологическая культура, экологические субъекты.

SOCIAL ESSENCE OF STATE ENVIRONMENTAL POLICY

Annotation

The article discusses the main directions of state environmental policy, the social nature of environmental policy, its forms, interdisciplinary types, as well as the need to formulate a specific environmental policy at the level of society.

Key words: environmental safety, environmental policy, natural disaster, environmental situation, environmental attitude, environmental problems, environmental culture, environmental subjects.

Kirish. O'tgan asrning 70 yillariga kelib, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar keskinlasha boshladi. Aynan shu davrda davlat va siyosat arboblari, olim va faylasuflar jamiyatning tabiatga ta'sirini muvofiqlashtirish lozimligi, buning uchun qator chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish kerakligi to'g'risida mulohaza yurita boshladilar. Mazkur mulohazalar ushbu chora-tadbirlarni ifodalovchi tushunchaning vujudga kelishi bilan yakun topdi. Ammo, ekologik xavfsizlik davlat ekologik siyosatining strategik vazifasiga aylandi. Shu jihatdan davlat ekologik siyosatining ijtimoiy ahamiyatini tubdan o'rganish va ilmiy asoslash dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy ushblardan foydalanilgan. Ekologik siyosatning asosiy yo'nalishlari qiyosiy tahlil qilingan va ilmiy xulosalar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuning turli jihatlari jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi, ekologik vaziyatning keskinlashgani, ekologik munosabatlar xarakterining o'zgarгани, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani mutaxassislarining mavzuga e'tiborini nihoyatda kuchaytirdi va ko'plab ilmiy-nazariy asarlar yaratildi. Masalan: ekologik munosabatlarni globallashtirishga, I.Arsentyeva, R.S.Gaysina [6], ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlar va ta'lim tarbiyaning roli B.Omonov, F.Qilichev, O'.G'.Tilovov, G.A.Ochilova, Kh.Sh.Nomozov, Yu.Kh.Manzarov, B.A.Ochilov [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10], suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashtirishga doir manbalar B.Omonov, S.Mamashakirov [3,10] tadqiqotlarida tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Amerikalik siyosatshunos olim Linton K. Kolduell ilk bor "ekologik siyosat" tushunchasini tilga oldi. Dastlabki davrlarda ekologik siyosat deganda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi texnologiyalardan foydalangan ishlab chiqaruvchini muayyan jarima to'lashga undovchi choralar nazarda tutildi. O'tgan asrning oxirlarida esa ushbu tushuncha bilan turfa ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan choralar ifodalanadigan bo'ldi. Bizning davrimizda "ekologik siyosat" tushunchasi nisbatan kengroq ma'noda qo'llanilmoqda. Ekologik siyosat deganda jamiyatning tabiatga ta'sirini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui nazarda tutiladi.

Tushunchaning XX asr so'nggi choragida ilmiy muomalaga kiritilgani bu boradagi sa'y-harakatlarning ham mazkur asrda vujudga kelganini anglatmaydi. Inson va jamiyatning tabiatga ta'sirini bir qadar muvofiqlashtirish va tartibga solish, bu munosabatlar natijasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyat mudom davom etgan. Bu faoliyat turli subyektlar tomonidan tashkil etilgan, amalga oshirilgan va rag'batlantirilgan. Masalan, mahalla faollarining tashabbusi bilan yaroqsiz holga kelgan suv manbalarining hashar yordamida tiklanishini, muayyan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish choralarini, sho'r yerlarni yuvishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishini, kishilarning atrof-muhit va tabiiy boyliklarga munosabatini nazorat qilish niyatida amalga oshirilgan sa'y-harakatlarni ekologik siyosatning namoyon bo'lishi sifatida baholash mumkin. Biroq, XX asrga qadar bunday siyosat uzluqli, muvaqqat va juz'iy xarakterga ega bo'lgan.

Bizning davrimizga kelib, ekologik siyosat ham mazmunan, ham tarkiban ancha murakkablashdi. U qator obyektlar tomonidan turli yo'nalish va sohalarida turfa tamoyillarga asosan amalga oshirilmoqda. Bu hol ekologik siyosatning turli ko'rinishlari, yo'nalishlari, sohalarini va tamoyillarini vujudga keltirdi. Binobarin, zamonaviy ekologik siyosatning mazmun va mohiyatini ularsiz tasavvur qilish mushkul.

Zamonaviy ekologik siyosat turli ko'rinishlarga ega. Jumladan, turli xalqaro tashkilotlar tomonidan jahon miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, ekologik masalalarga bag'ishlangan xalqaro ahamiyatga molik hujjatlar ijrosi odatda umumsayyoraviy ekologik siyosat deb yuritiladi. Undan farqli o'laroq, davlat ekologik siyosati hokimiyat organlari, davlat tomonidan ta'sis etilgan vakolatli jamoatchilik tashkilotlari va shu kabilar tomonidan mamlakat hududidagi ekologik vaziyatni boshqarish, ekologik munosabatlarni tartibga solish va ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy choralarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ekologik siyosat haqida gapirganda uning mintaqaviy ko'rinishi ham tilga olinadi. Bunda, bir tomondan, davlatning muayyan mintaqadagi ekologik vaziyatni asrash

maqsadida amalga oshirgan choralari majmui, ikkinchi tomondan esa, shu mintaqadagi hokimiyat organlarining ekologik faoliyati, mahalliy miqyosda qabul qilingan ekologik xujjatlarning ijrosi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, lokal ekologik siyosat haqida ham gapirish mumkin. U yoki bu tashkilot doirasida amalga oshirilgan ekologik chora-tadbirlar shunday deb yuritiladi. Mazkur choralari tashkilot yoxud korxonaning atrof-muhitga salbiy ta'sirini cheklash maqsadida ro'yobga chiqariladi.

Ekologik siyosatning barcha ko'rinishlari dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega, albatta. Biroq biz tadqiqot mantig'iga amal qilgan holda o'z mulohazalarimizda davlat hokimiyat organlari, siyosiy institutlar, vakolatli jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ekologik siyosatni nazarda tutmoqdamiz. Darvoqe, davlat ekologik siyosati ekologik siyosatning eng mazmundor va tarkiban murakkab ko'rinishi hisoblanadi. Chunki u bir vaqtning o'zida yuqoridagi subyektlar tomonidan bir necha yo'nalish va sohalarida murakkab tamoyillar asosida keng ko'lamda, tizimli, uzluksiz ravishda olib boriladi. Davlat ekologik siyosatining asosiy maqsadi mamlakat hududida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uning ekologik manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) ekologik vaziyatni himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan choralari; bu choralari mamlakatdagi tabiiy shart-sharoitlarni asrash, mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, mavjud shart-sharoitlarni inson turmushi uchun maqbullashtirib borish maqsadida amalga oshiriladi; ekologik vaziyatning barqarorligi davlatning mazkur yo'nalishdagi ekologik siyosati samarasidan dalolat beradi;

b) ekologik munosabatlarni takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan choralari; bu choralari ekologik faoliyat subyektlarining tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy shart-sharoitlarni maqbullashtirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish borasidagi aloqalarini tartibga solish va muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi; ekologik munosabatlarning huquqiy maydonda qolayotgani bu yo'nalishdagi davlat ekologik siyosatining to'g'ri tashkil qilinganini ko'rsatadi;

v) ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilgan choralari; bu choralari tabiiy resurslarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan tabiatning ularni shakllantirish borasidagi cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf qilish maqsadida amalga oshiriladi; mamlakatdagi ekologik muammolarning davlat va jamiyat nazorati ostida qolayotgani bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning maqsadga muvofiqligini namoyish qiladi.

Davlatning ekologik siyosati turli sohalarida amalga oshiriladi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun birinchi navbatda umummilliy miqyosdagi ekologik faoliyatni yo'lga qo'yish zarur. Chunki mamlakatdagi ekologik vaziyat o'z barqarorligini stixiyali ravishda vujudga keltirishi mumkin emas. Har qanday jamiyatdagi ekologik munosabatlar tartibga solish va muvofiqlashtirishni taqozo qiladi. Ekologik muammolarni esa umummilliy hamjihatlikni ta'minlash orqaligina bartaraf etish mumkin. Bularning barchasi jamiyat miqyosida muayyan ekologik siyosatni yo'lga qo'yish zaruriyatiga borib taqaladi. Binobarin, umummilliy sohada amalga oshirilgan ekologik siyosat mamlakat ekologik xavfsizligini ta'minlashning dastlabki shartidir. Bu siyosatning maqsadi va vazifalari, konseptual yondashuvlari va g'oyalari, strategiyasi va taktikasi, huquqiy negizlari va tashkiliy-institutsional asoslari naqadar puxta shakllantirilgan bo'lsa, uning samaradorligi darajasi ham shu qadar baland bo'ladi.

Qaysi yo'nalishda va sohada amalga oshirilayotganidan qat'i nazar, davlat ekologik siyosati qator yondashuv va tamoyillarga asoslanishni taqozo qiladi. Bu o'rinda umumiylik va xususiylik dialektikasi ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Bir tomondan, har qanday davlat tomonidan olib borilayotgan ekologik siyosat milliy yondashuv va tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Odatda bu tamoyillar tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekistondagi davlat ekologik siyosatining asosiy yondashuv va tamoyillari "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi"da ifodalab berilgan. Bu yondashuv va tamoyillar quyidagilardan iborat: a) normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish; b) iqtisodiyotni ekologiyalashtirish; v) tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish; g) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish; d) kompleks ekologik monitoringni olib borish; ye) innovatsion texnologik jarayonlar va metodikalarni ishlab chiqish; j) ekologik madaniyat va ta'limni shakllantirish; z) xalqaro hamkorlikni kuchaytirish [1].

Ayni paytda jahon hamjamiyati amal qilayotgan umumsayyoraviy ekologik siyosat tamoyillari ham mavjud. Ular turkumiga quyidagilar kiradi: [2] a) muqobil zararlari tamoyili - bu tamoyilga ko'ra, tabiiy resurslardan foydalanish evaziga topilgan daromad muqobil zarar miqdoridan ko'p bo'lmog'i darkor; b) "ifloslantirgan to'laydi" tamoyili - bu tamoyilga ko'ra, ishlab chiqaruvchi tabiiy muhitga yetkazgan zarari salmog'iga mutanosib ravishda tovon to'lashi kerak; v) uzoq muddatli istiqbol tamoyili - bu tamoyilga ko'ra, atrof-muhitga yetkazilgan zararning asl ko'lami uzoq muddat o'tganidan keyin namoyon bo'ladi, binobarin zarar miqdorini aniqlayotganda bu holat inobatga olinmog'i darkor; g) o'zaro aloqadorlik tamoyili - bu tamoyilga ko'ra, ekologik muhitning barcha elementlari o'zaro aloqadordir, shu boisdan salbiy oqibatlar bir elementdan boshqasiga o'tishini nazarda tutish lozim.

Xullas, davlat amalga oshirayotgan ekologik siyosatning nazariy-metodologik asoslari voqiflik, ekologik siyosatning ularga mutanosib ravishda yo'lga qo'yilishi quyidagi natijalarni berishi mumkin:

- a) mamlakatdagi ekologik vaziyat barqarorligi, uning tarkibiy elementlarining xavfsiz rivoji ta'minlanadi;
- b) turli ekologik subyektlar amalga oshirayotgan ekologik munosabatlar xuquqiy maydon doirasida saqlanadi;
- v) mamlakatning turli mintaqalarida mavjud bo'lgan ekologik muammolarning davlat va jamiyat nazorati ostida qolishi ta'minlanadi;
- g) oqilona ekologik faoliyatni rag'batlantirish va atrof-muhit ifloslanishiga olib kelgan ekologik hatti-harakatlarni tiyish imkoni paydo bo'ladi;
- d) mamlakatdagi ekologik muhitni tizimli monitoring qilib borish imkoniyatlari kengayadi;
- ye) fuqarolar ekologik madaniyatini yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi;
- j) xalqaro miqyosda milliy ekologik manfaatlarni ifodalash va himoya qilish imkoni vujudga keladi;
- z) xalqaro hamjamiyatning ekologik potensialidan mamlakatdagi ekologik muhitni mustahkamlashda foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Umumlashtirib aytganda, ilmiy asosda tashkil etilgan, to'g'ri nazariy-metodologik asoslarga tayangan davlat ekologik siyosati mamlakatning ekologik xavfsizligini ta'minlaydi, milliy ekologik manfaatlarni himoyalashga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida davlat amalga oshirgan ekologik siyosatning strategik asoslari milliy manfaatlar ustuvorligi, umuminsoniy va milliy manfaatlar uyg'unligi, mintaqaviy ekologik hamkorlik ustuvorligi, xalqaro ekologik munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanishga bo'lgan intilish, ekologik siyosatni amalga oshirayotgan tashkiliy-institutsional tizimning muttasil takomillashtirilishi, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini

qaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish vazifalari bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur strategik asoslar davlat ekologik siyosatiga yaxlitlik, tizimlilik va uzluksizligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"// lex.uz.
2. Каранда А.В. Экологическая политика: понятие, виды, принципы.// Молодой ученый, 2020, №3. – С.352-354.
3. Мамашокиров С., Усмонов Э. Барқарор тараққиётнинг экологик хавфсизлик масалалари.Т.: "Фан" 2009. 247 б.
4. Омонов Б. Ўзбекистоннинг Оролбўйи минтақасидаги экологик сиёсати –Т.: "Фан", 2014. -184 б.
5. Қўлдошев А. Марказий Осиё давлатларида экологик муносабатларни бошқаришнинг демократик ва гуманистик тамойиллари. –Т.: "Фан", 2014. - 160 б.
6. Гайсина Р.С. Экологическая ситуация: взгляды на сущность, образование и пути решения// Концепт, 2013, №6.
7. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>
8. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarining roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.
9. Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021.
10. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4680>